

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.Sh.Nomozov	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
U.R.Sobirova	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	332
A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari	335
I.Rizayev	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
R Mardonov	
Sharq va g'arb ta'lif falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot	346
N.X.XakimovB.A.Nabiiev	
O'rta osiyoda hozirgi ekloviy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
X.Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil)	358
H.Muhamadiyev	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida	365
D.B.Sharipov	
Tinchlikni ta'minlashning innovation omillari	370
X.R.Xolidaxon	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

SIYOSAT

A.Z.Ismayilov	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari	378
J.Sultonov	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish	384

TARIX

B.Usmonov, D.A.Madalimov	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida	392
M.Sh.Muzaffarjon	
O'zbekistonda turizmnning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari)	397
B.M.Abdullayev	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli	405
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
D.M.Turdiyeva	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
A.A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir	425
A.A.Yo'ldashev	
XX asrning 20-yillarda ozarbayjonda ta'lif olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	436
P.P.Norbo'tayev	
Epos va din	440
Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili	446
J.Sh.Museyibzada	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
M.R.Umirzakova	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

HUQUQIY ONG TIZIMIDA HUQUQIY DAVLATCHILIK G'oyalari

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ПРАВОВОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ПРАВОСОЗНАНИЯ

IDEAS ABOUT LEGAL STATEHOOD IN THE SYSTEM OF LEGAL CONSCIOUSNESS

Ismayilov Akmal Ziyadillaevich¹

¹Ismayilov Akmal Ziyadillaevich

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g'oya, ma'nnaviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni tuzilmalari madaniy hodisalardir. Ular tabiat tomonidan in'om etilgan emas, balki insonlar tomonidan ongli va maxsus ravishda o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlov berib yaratilgan. Shunday ekan, ushbu maqolamizda biz davlatchilik shakllanishining qonuniyatli jarayonlariga alohida to'xtalishga harakat qildik. Shuningdek, davlat huquqiy hayotda ham boshqarib turuvchilik qonunini bajarishi, unda jamiyat huquqiy madaniyatni, jumladan qonun va qonun osti hujjalari ham huquqiy ong sifatida esa uning vakolatlarining huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilishiga e'tibor qaratilgan. Umuman olganda, jamiyat mavjudligi va rivojanishining asosi madaniy borliq hisoblanishi, uning negizida jamiyatning to'rtta korrelyasion-funksional qonunlari kelib chiqishini yoritib berishga harakat qilindi.

Аннотация

Структуры правового государства и гражданского общества являются явлениями культуры. Они не одарены природой, а созданы людьми сознательно и специально для удовлетворения своих социальных потребностей. Поэтому в данной статье мы попытались сосредоточить внимание на легитимных процессах формирования государства. Также уделяется внимание реализации государством регулирующего права в правовой жизни, где правовая культура общества, в том числе законы и нормативные акты, служат правосознанием и правовой основой его полномочий. В целом основой существования и развития общества считается культурное целое, и на его основе пытались объяснить происхождение четырех соотносительно-функциональных законов общества.

Abstract

The structures of the rule of law and civil society are phenomena of culture. They are not gifted by nature, but created by people consciously and specifically to meet their social needs. Therefore, in this article we have tried to focus on the legitimate processes of state formation. Also, attention is paid to the implementation by the state of regulatory law in legal life, where the legal culture of society, including laws and regulations, serve as legal consciousness and the legal basis of its powers. In general, the cultural whole is considered the basis of the existence and development of society, and on its basis they tried to explain the origin of the four correlative-functional laws of society.

Kalit so'zlar: huquq, huquqiy ong, huquqiy davlat, huquqiy borlik, fuqarolik, fuqarolik jamiyat, qonun, sivilizatsiya, davlat, davlatchilik, sotsial hayot, madaniy borlik, moddiy hayot, ma'nnaviy hayot, ijtimoiy munosabatlar.

Ключевые слова: право, правосознание, правовое государство, правовое бытие, гражданство, гражданское общество, право, цивилизация, государство, государственность, общественная жизнь, культурное бытие, материальная жизнь, духовная жизнь, общественные отношения.

Key words: law, legal consciousness, legal state, legal existence, citizenship, civil society, law, civilization, state, statehood, public life, cultural life, material life, spiritual life, social relations.

KIRISH

Davlatchilik masalasi bir necha ijtimoiy fanlar – ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik va yuridik fanlarning tadqiqot ob'ektlaridandir. Ijtimoiy falsafada davlatchilik ijtimoiy madaniy hodisa va u jamiyatning kattakon komponenti sifatida korrelyasion-funksional qonunlari tizimi doirasida o'rGANiladi. Ijtimoiy falsafa fani davlatchilikning kelib chiqishi masalasida tarix, davlat va huquq tarixi fanlari yutuqlarini umumlashtirish yo'lidan boradi. Davlat, jumladan huquqiy davlat masalasi ijtimoiy falsafaning mavzularidan biridir. Bu masala esa siyosatshunoslikda markaziy o'ringa chiqadi. Bizning tadqiqot ob'ektimiz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro aloqadorlik tizimi va unda huquqiy ongning o'rni masalasidir. Huquqiy davlat esa davlatchilik tarixida bir bosqichdir. Shunday ekan, mazkur masalalarni oydinlashtirish uchun davlatchilik to'g'risidagi huquqiy qarashlarga ham murojaat qilishga to'g'ri keladi. Davlatchilik va uning kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar, jumladan konsepsiya – nazariyalar huquqiy ongning tarkibiy qismlari va shakllaridir. Huquqiy ong davlat va huquq nazariyasining asosiy ob'ektlaridan biridir. Huquqiy

SIYOSAT

ongning yuqori, ya'ni nazariy darajasi huquqiy mafkura va yuridik fanlardir. Yuridik fanlar ayni vaqtida nazariy huquqiy ongning tarkibiy qismlaridir. Huquqiy ongning nazariy darajasi, xususan yuridik fanlar umumiyligi huquqiy fan - davlat va huquq nazariyasi, huquqiy-tarixiy fanlar, davlat-huquqiy fanlari, fuqarolik-huquqiy fanlari, xo'jalik-huquqiy fanlari, jinoiy-huquqiy fanlari, protsessual huquqiy fanlari va xalqaro huquqiy fanlari bo'lmalaridan iborat. Davlat va huquqiy davlat, jamiyat va fuqarolik jamiyati masalalari esa davlat va huquq nazariyasi va davlat huquqi va boshqaruvi, xususan konstitutsiyaviy huquq fanlarida o'rganiladi. Shunday ekan, biz o'z umumlashmalarimizda bu fanlarning yutuqlaridan foydalanamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

G'arbda qadimgi davrdan hozirgi davrgacha davlat, jumladan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati masalalariga Salon, Pifagor, Platon, Aristotel, N.Makiavelli, G.Grotsiy, B.Spinosa, Dj.Milton, O.Sidney, T.Gobbs, J.Lokk, SH.Monteskya, J.Russo, I.Kant, V.Fon. Gumboledt, G.Gegel, D.Jefferson, A. de Tekvil, K.Popper, F.Xayek, R.Patiem, N.Berdyaev, S.Gessen, G.Shermenovich, YU.Gambarov, P.Sorokin, N.Karkunov, V.Solovev, V.Xvostov, S.Alekseev, D.Kerimov, V.Nersesyan, K.Gadjiev, YU.Xabermas, V.Ilin, A.Solovev, YU.Rednik kabi mutafakkir va tadqiqotchilar ham e'tibor berishganlar.

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati masalalari bilan bevosita va bilvosita Abduraxmonov F., Abilov O., Abduxoliquov S., Aliev B.A., Davronov Z., Ismoilov M.I., Madaeva SH.O., Mamashokirov S., Norqulov D.T., Raximov S., Sanginov S.S., To'raev B., Haydarov X.F., Hakimov N.H. va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat, jumladan huquqiy davlat jamiyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – siyosiy hayot sohasining komponentlaridan hisoblanadi. "Davlat, – deydi Z.M.Islamov, - barcha siyosatning yadrosi"[1, 9]. Agar butun va qism dialektikasi bo'yicha qaraladigan bo'lsa, "jamiyat" tushunchasi "fuqarolik jamiyati" tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Xuddi shundayin, "davlat" tushunchasi ham "huquqiy davlat" tushunchasiga nisbatan kengroqdir. "Jamiyat va davlat nisbatini tavsiflagan holda, -deydi F.M.Royanov, - aytish lozimki, tarixiy ma'noda davlat paydo bo'lishi bilan jamiyat bamisolik ikki qismga - davlatga va boshqa, ya'ni nodavlat qismga ajralgandek bo'ladi, aynan shu ikkinchi qismni fuqarolik jamiyati deb atamoq lozim. Davlatni tarkib tortiruvchi jamiyatda, bir tomonidan, davlat, ikkinchi tomonidan, fuqarolik jamiyati aniq ajralib tursa, davlat va jamiyat nisbati masalasi, aslida, fuqarolik jamiyati va uning siyosiy hokimiyatni nisbati muammosiga aylanadi"[2, 83].

Huquqiy davlat davlatning shakli-mi yoki biron-bir ko'rinishi-mi? Bu savolga ilmiy adabiyotlarda bir xil javobga kelingan emas. Davlatga xos belgilari huquqiy davlatga ham xos. Ammo davlat hokimiyatida asosiy masala jamiyat darajasidagi boshqarish hisoblanadi. "Davlat hokimiyati, - deydi Z.M.Islamov, - kishilar harakati va hulq-atvorini boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal qilish, shaxsiy manfaatlarni yoki guruhlarning manfaatlarni muvofiqlashtirish, ularni hokimiyatning yagona – xohish-irodasiga ishontirish, rag'batlantirish, majburlash usullari bilan bo'yundirishga qodir bo'lgan buyuk bunyodkor kuch sifatida namoyon bo'ladi"[3, 324]. Huquqiy davlatchilikda eng asosiy masala qonunlarning huquqiyligi va ularning ta'minlanishi asosida davlat faoliyatining, boshqarish tizimining amal qilishidir. "Huquqiy davlat" tushunchasi birinchi marta nemis olimlari K.T.Velker, I.X.Frayxer fon, Aretin va R.fon Mol asarlarida ishlatalgan[4, 33-34]. Lekin huquqiy davlat – qonunga bo'ysinuvchi davlat hokimiyati to'g'risidagi g'oyalari qadimiyyidir.

Xo'sh, davlat, jumladan huquqiy davlat o'zi nima? U narsa-mi yoki munosabat? U sub'ekt-mi yoki sub'ektlar o'tasidagi munosabatlar-mi? U tabiiy hodisa-mi yoki ijtimoiy hodisa-mi? Agar u ijtimoiy hodisa bo'lsa, uning madaniyligi, ya'ni ongli va maqsadga muvofiq holda yuzaga keltirilganligi nimada? Bu haqda "Davlat va huquq nazariyasi" (-T.: TDYUI nashriyoti 2000.) darsligida keltirilgan ba'zi mutafakkirlarning fikrlarini keltiramiz: Aristotel davlatni "insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat"[5, 67] dir, deb ta'riflaydi. Aristotel ta'limoti bo'yicha, barchaning ustidan qonun hukmron bo'lgani ma'qul. Qonun esa huquqqa asoslanishi kerak[6, 481]. O'rta asr mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Farobi yuquqiy davlatga oid ushbu fikrlarni rivojlantirib "Fozil odamlar shahri" asarida shunday yozadi: "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar va boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ulardan odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladi. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dashmandan himoya

qiladilar”[7, 19]. Demokratiya manfaatlar uyg‘unligi va uning boshqarilishidir. Farobiyning bu qarashlari negizida ushbu qoidalar yotibdi. Farobi davlatda adolatlilik qonunlar ustuvor bo‘lishini ta’kidlab shunday yozadi: “Agar u (sohibi qonun) o‘zi buyurgan narsani joriy etolmasa, agar boshqalar bo‘ysingan narsaga o‘zi amal qilmasa, u holda uning ko‘rsatmalari qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi va uning so‘zlar qo‘l ostidagilarga ta’sir etmaydi”[7, 20]. Davlat bog‘lanishlar tugunidir. Huquqiy davlatda bu tugun va uning ta’siri adolatlilik bo‘ladi. Amir Temurning ham davlatchilik to‘g‘risidagi quyidagi qarashlari ham davlatning ijtimoiy munosabatlar tuguni sifatida madaniy hodisa ekanligini tasdiqlaydi: “davlat ishlarning to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim”[8, 15].

Yangi davrda G.Grotsiy esa davlatni “huquqqa rioya etish va umummanfaati yo‘lida tuzilgan erkin kishilarning mukammal ittifoqi”[5, 68], deb tavsiflaydi. Dj.Lokk va I.Kantlar davlatni uyushma ma’nosida ishlatishgan[5, 68]. Jumladan Dj.Lokk davlatchilikda qonun ustuvor bo‘lishi to‘g‘risida shunday yozadi: “Qonun bo‘lmagan joyda erkinlik ham bo‘lmaydi”[9, 34], Nemis faylasufi I.Kant esa “davlat – huquqiy qonunlarga bo‘ysunuvchi ko‘p kishilarning birlashmasidir”[10, 344], deydi. J.Boden va Gobbslar davlat deganda hokimiyatning suverenligini ilgari surdi[5, 68]. Xullas, G‘arb va Sharq mutafakkirlari bo‘lsin, ularning davlat va uning huquqqa mosligi to‘g‘risidagi fikrlari bir-biriga mazmunan yaqin bo‘lib, maxsus sub’ektlar tomonidan boshqariladigan ijtimoiy munosabatlarning tugunidan iborat bo‘lib chiqadi. Bu munosabatlar tuguni tabiat tomonidan yaratilgan emas, aksincha kishilarning ongli, maqsadli, demakki madaniy harakatlaridir. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida davlatga berilgan ta’rif – tavsiflar ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi. “Davlat, - deyiladi A.Saidov va U.Tadixonovlar, - suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo‘lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo‘lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy – hududiy tashkilotdir”[11, 10].

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo‘lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan yagona siyosiy tashkilotdir.

Davlat-jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruhalr, sinf, tashkilot, hamkorlikdagi faoliyatini va o‘zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institutdir[11, 10].

Huquqiy davlat to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlarning mayjudligiga qaramay, hozirgi kunda ijtimoiy falsafiy ilmiy adabiyotda huquqiy davlatning ta’rifi, tushunchasi, uning belgilari, prinsiplari, fuqarolik jamiyat bilan munosabati masalalarida umumiylilik hamon qaror topmagan. Shu munosabat bilan yuridik fanlarda huquqiy davlatga berilgan ta’riflarni qiyosiy nuqtai – nazardan qarab chiqish muayyan qiziqish uyg‘otishi tabiiydir.

Taniqli huquqshunos olim V.V.Lazarevning ta’rificha, huquqiy davlat – bu nafaqat insoniylik va adolatlilik qaror toptirishga qaratilgan ijtimoiy qadriyatlardan biri bo‘libgina qolmay, balki shaxsning erkinligini, uning qadr va qimmatini ta’minalash va himoya qilishning amaliy instituti, byurokratiya, mahalliychilik va idorachilik bilan kurashishning vositasi hamda xalq hokimiyatichiligining amal qilish shakli hamdir[12, 293]. Bu ta’rifda huquqiy davlat g‘oyasi ijtimoiy qadriyat sifatidagina namayon bo‘lmay, balki jamiyat hayotini oqilona tashkil etishning amaliy, real shakli tarzida qaror topishga bo‘lgan ishonch sifatida ham ko‘rinib turibdi, albatta. Shuningdek professor A.V.Malkoning ta’rificha, huquqiy davlat – shunday davlatki, unda inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini eng to‘la ta’minalash hamda hokimiyat suiste’molliklariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida siyosiy hokimiyatni huquq bilan asta – sekin bog‘lash uchun sharoit yaratilgan bo‘ladi[13, 189]. Bu ta’rifda huquqiy davlatda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi davlat organlari tomonidan vakolatlarni suiiste’mol qilishning oldi olinishi, huquqiy davlatni tashkil etishning prinsiplarining aniq amalga oshishi inson huquq va erkinliklarining to‘la ro‘yobga chiqishiga imkon yaratashi ta’kidlanadi. Professor Z.M.Islamov huquqiy davlatni ommaviy – siyosiy hokimiyatni tashkil etish va uning faoliyatining, hamda inson va fuqaro huquq va erkinliklari egasi, huquq sub’ektlari sifatidagi individlar bilan o‘zaro munosabatining huquqiy shakli sifatida ta’riflaydi[14, 119].

Yuqoridaq ta’riflardagi turlichalikka qaramay, ularda muayyan umumiylikni ta’kidlash o‘rnli. Shunday qilib, huquqiy davlat bu shunday davlatki, unda insonning huquq va erkinliklari to‘la ta’minaladi, davlat faoliyati hokimiyatlar bo‘linishiga asoslanib, hokimiyat suiiste’molligi holatlari istisno etiladi, davlat va shaxs o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlarga asoslangan munosabat tizimi hamda huquq hukmronligi tarkib topadi. Shuning bilan birga, huquqiy davlat, eng avvalo,

SIYOSAT

davlat absolyutizmi va totalitarizmining yagona muqobili hisoblanmish davlat mustaqilligining huquqiy jihatdan tashkil etilishini nazarda tutadi. Davlat mustaqilligi ijtimoiy hayotda kuch va zulm monopoliysi huquqini emas, eng avvalo, davlat hukmronligining huquq bilan belgilangan shaklini amalga oshirishni anglatadi. Bu huquqiy shakl huquqiy majburiyatning xarakter kuchini davlat yo'li bilan qo'llash imkonini beradi. Davlat mustaqilligining huquqiy bayoni shuni bildiradiki, hokimiyat, uning organlari va mansabdor shaxslarning vakolatlari hech qanday holatda buzilmaydigan yuridik tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Davlat organlari faoliyatida vazifalar va vakolatlarning aniq taqsimplanishi, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarning bo'linishi davlatning huquqiy harakterini ifodalovchi muhim xususiyatdir. Bu tizimdagи yuqori o'rinni qonun chiqaruvchi hokimiyat egallashi kerak. Faqat qonun chiqaruvchi hokimiyatgina xalqning mustaqilligini, xohishini ifodalaydigan, davlatning huquqiy harakterini aniqlovchi institutlar, ular faoliyatining me'yori va tartibini belgilaydi, boshqa hokimiyatlarning to'g'ri tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi uchun qonuniy shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat va huquqiy davlat tushunchalari, ma'no-mazmuni borasidagi g'oyalar va ta'limotlar umumlashtirilsa, ularning barchasi uchun tipologik yaxlit umumnazariy talqin mavjudligini ko'rish mumkin. Ya'ni, huquqiy davlat nazariysi ijtimoiy hayotning barcha jabhasida huquq ustivorligini ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi deb biladigan davlat faoliyatining maqsadini, ish yuritish vositalari hamda yo'sinlariga oid muammolarni yoritadi. Bunday davlat faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asosida va huquqiy vositalar bilangina amalga oshirilishi lozim. U jamiyatning demokratlashuviga, davlat organlari ishida o'zboshimchalik, zo'ravonlik va g'ayri qonuniylikning butunlay istisno bo'lishiga olib keladi.

Davlatning kelib chiqishiga davlatning belgilari, funksiyalari, davlat shakllari, davlat idoralari va ularning qonuniy faoliyatlarini to'g'risidagi qarashlar ham uning siyosiy munosabatlar majmuasi, tuguni va siyosiy – huquqiy madaniy hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Bu haqda, avvalo bor, davlatning asosiy belgilari to'g'risidagi qarashlarni olaylik. Davlatning belgilari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda bir xillik yo'q.

Moskva Davlat Universiteti olimlari tomonidan nashr etilgan "Davlat va huquqning umumiyligi nazariysi" nomli ikki tomlik akademik kursda prof. M.N.Marchenko davlatning quyidagi beshta belgisini ko'rsatgan:

"Avvalambor bu – jamiyatdan ajralib chiqqan va ko'pincha ular ustidan turadigan hokimiyat va boshqaruв apparatining mavjudligi. ...

Davlatning muhim farq qiluvchi xususiyati hokimiyat va boshqaruв apparati bilan birgalikda, majburlov apparatining mayjudligi hisoblanadi...

Davlatning o'ziga xos xususiyatlari orasida aholining hududiy bo'linishi bo'yicha bo'lininishi shunday xususiyat sifatida ajratiladi. ...

Davlatning muhim belgilaridan biri suverinitet hisoblanadi. ...

Davlatning xarakterli belgisi, uning ta'kidlangan xususiyatlari bilan birgalikda, zayom va soliqlar hisoblanadi"^[15, 94-99]. Davlatning ushbu sifat belgilari barchasi sof madaniy hodisalardir. Bunda ko'rsatilgan davlatning to'rtinchи belgisi – suverinitet, ya'ni oly hokimiyatga egalik, hokimiyatning mustaqilligi ayni vaqtida siyosiy va huquqiy ijodkorlik natijalaridir. Bu birinchidan. Ikkinchidan, davlatning ko'rsatilgan ikkinchi belgisi – majburlov apparatining mavjudligi, davlatning birinchi belgisi tarkibiga – hokimiyat va boshqaruв apparatiga kiradi. U alohida belgi hisoblanmaydi. Uchinchidan, soliq to'plash hokimiyat organlarining vazifasiga kiradi. Funksiya faoliyat, vazifalar demakdir. "Davlat funksiyasini, - deydi V.A.Chetvernин, - davlat organlari funksiyasidan farqlamoq kerak. Shundayin, davlatda butunligicha fuqarolik jamiyatiga munosabati bo'yicha soliq yig'ish funksiyasi yoki fiskal funksiyasi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Negaki, davlat jamiyat a'zolari uchun, jumladan ulardan soliq yig'ish uchun zarur, degan zid ifodani anglatgan bo'lar edi. Davlat – bu shunday ommaviy-hokimiyat institutiki, qaysinki soliq yig'ish vazifasini qo'ymaydi, balki soliqlar hisobiga yashaydi va soliqlar hisobidan olingan mablag' hisobidan mavjud bo'ladi. Soliqlar – bu davlatning vazifalarini bajarish asosi, funksiyalarini amalga oshirish vositasi va sharoitidir, soliq solmoq va yig'moq – bu qonun chiqaruvchining vazifasi va davlat soliq organlarining funksiyasi"^[16, 630]. Biz ham ushbu so'nggi fikrlarga qo'shilamiz: soliq solish va yig'ish davlatning tegishli organlarining vazifasiga kiradi, u davlatning belgilari hisoblanmaydi. Prof.M.N.Marchenkoning yuqoridagi ko'rsatilgan fikrlarida davlatning faqat ikkita asosiy belgilari ko'rsatilgan, xolos.

Siyosatshunoslik sohasida V.P.Pugachyov va A.I.Solovyovlar davlatning belgilarini quyidagi tartibda sanab ko'rsatishgan:

"1. Xalq hokimiyatining jamiyatdan ajralishi, uning barcha aholi tashkiloti bilan mos kelmasligi, professional boshqaruvchilar qatlamining paydo bo'lishi. ...

2. Davlatning chegaralarini chizib qo'yuvchi hudud davlatning qonun va vakolatlari ma'lum bir hududda yashovchi odamlarga tarqaladi. ...

3. Suverinitet, ya'ni ma'lum bir hududda oliy hokimiyatga egalik. Barcha aholi uchun majburiy bo'lgan qonunlar va me'yordarni chiqarish huquqi faqat ungagina tegishlidir. ...

4. Jismoniy majburlash, ochiqchasiga kuch ishlatalish monopoliyasi (yakka egaligi)... Majburlash funksiyasini bajarish uchun davlatga maxsus vositalar (qurol, qamoqxona va boshqalar), shuningdek, organlar – armiya, politsiya, xavfsizlik xizmati, sud, prokuratura bo'ladi.

5. Aholidan soliqlar va yig'imlar olish huquqi. ...

6. Davlatga a'zolikning majburiyligi. ...

7. Bir butun jamiyatning vakolatiga hamda umumiyl manfaatlar va umumiyl farovonlikni himoya qilishga da'vogarlik..."[17, 257-258]. Davlatning ushbu ko'rsatilgan belgilardan uchinchisi – suverinitet, ya'ni oliy hokimiyatga egalik birinchi belgi tarkibiga kiradi va uning funksional holatini ifodalaydi. Qolganlari esa davlatning belgilari hisoblanmaydi, balki ichki va tashqi funksiyalarini ifodalaydi va to'ldiradi. V.P.Pugachyov va A.I.Solovyovlarning davlatning ushbu ko'rsatilgan belgilari ichida faqat birinchisi, ya'ni xalq hokimiyatining mavjudligi va ikkinchidan – hududiy bo'linishlar haqiqatdan ham davlat belgilarini ifodalaydi. Ularga, jumladan hududiy bo'linishga ham maqsadga muvofiqlik xos, shuning uchun ham ular madaniy hodisalardir. Ko'rsatilgan boshqa belgilar, bizning nazarimizda funksiyalar ham sof madaniy hodisalardir, ongli va maqsadga muvofiq harakatlardir.

Huquqiy davlat, shuningdek, jamiyatning har bir a'zosi o'z taqdirini o'zi erkin belgilashiga asoslanadi. Bu shaxsning jamiyat bilan aloqasini ta'minlovchi ijtimoiy fazilatlarini ro'y-rost ro'yobga chiqarish uchun mumkin qadar qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Bunda huquq ijodiy faoliyat va teranlikni, insonning o'z-o'zini chuqur anglab, erkin, ongli kamol topa borishini, mas'ullig'i favqulotda oshishini ta'minlovchi poydevorga aylanadi. Insonni ruhan rag'batlantiradi, uning ijtimoiy e'tirof etilishini, ozod va teng huquqli bo'lib dunyoga kelishini kafolatlaydi. Teng imkoniyatlar,adolat, saylash va saylanish, so'z hamda vijdon erkinligi umumbashariy demokratik qadriyatlar bo'lib, ular rivojlangan, ma'rifiy etuk jamiyatda shaxs huquqiy maqomining asos-mohiyatini tashkil etadi. Shu ma'noda huquq qonunning hukmronligi fuqaroning ozodlik, tenglik,adolat, baxt-saodat, daxlsizlik hamda shaxsning ijtimoiy tabiatidan kelib chiquvchi boshqa qadriyatlarga bo'lgan tabiiy-tarixiy huquqiy shart qilib qo'yuvchi o'ziga xos muhim ijtimoiy hodisadir.

Huquqning davlat hamda uning faoliyati ustidan ijtimoiy-siyosiy peshvoligini e'tirof etish chinakam huquqiy davlatni shakllantirishning birlamchi sharti bo'lib, uning siyosiy-huquqiy ittifoq sifatidagi mohiyati demokratiyani ta'minlaydi, davlatchilikning o'zi tomonidan tan olinishiga olib keladi. Huquqiy davlatning qaror topishi va rivojlanishi uning asosiy tamoyillarini izchil ro'yobga chiqarishni taqozo etadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquq va qonunning ustuvorligi shunday tamoyillarning birinchisi hisoblanadi. Bu ma'rifiy rivojlanish taraqqiyot jarayonida madaniy yuksaklikka ko'tarilish, chinakam xalq hokimiyati va demokratiyaning real tarzda namoyon bo'lish imkoniyati yuzaga kelishining muqarrar alomatidir.

Huquqiy davlatda xalq ma'naviyati va uning ijtimoiy ifodasi, ayniqsa, qonun posbonlarining o'z burchlariga sodiqligida, halolligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu munosabat bilan professor A.X.Saidovning o'zbek xalqining milliy huquqiy an'analaridan foydalanib, oila-turmush nizolari masalalari yuzasidan mahallalarda vijdon sudlarini tiklash kerak[18], degan taklifiga qo'shilamiz.

Huquqiy davlatning asl mohiyatini namoyon etuvchi muhim huquqiy g'oyaviy tamoyillari mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- birinchi tamoyil - davlatning o'zi, uning organlari qonun bilan bog'liq ekanligi, qonun bilan cheklanganligi;

- ikkinchi tamoyil - davlat uning hokimiyat va boshqaruv organlari, turli darajadagi mansabdar shaxslar jamiyatda amal qilib turgan qonunlarni buzishga haqli emasligi;

- uchinchi tamoyil - shaxs erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari, sha'ni, qadr-qimmati daxlsiz ekanligida, ular huquqi muhofaza etilishi va kafolatlanishi;

- to'rtinchi tamoyil - davlat bilan shaxsning o'zaro javobgarligi;

SIYOSAT

- beshinchi tamoyil - qonunni ro'yobga chiqarish, uning adolatli ijrosini amalda ta'minlash, nazorat qilish va tekshirib borishning samarali tizimini tarkib toptirish.

XULOSA

Shunday qilib, huquqiy davlat tushunchasi, uning asosiy belgilari va tamoyillari demokratik dunyoviy davlatning ijtimoiy asoslarini belgilaydigan, uni fuqarolik jamiyatni sari boshlaydigan, inson huquqi, erkini to'la ta'minlaydigan konstitutsiyaviy maqom hisoblanadi. Huquqiy davlat davlatning adolatli ko'rinishidir va huquqiy qonunlarga bo'y sunishidir.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan bo'lib, bunda konstitutsiyaviy huquqiy ong yetakchilik xususiyatiga egadir. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari huquqiy ongning bu shaklisiz tarkib topmaydi.

Davlat va huquqiy davlatning munosabati masalasi butun va qism dialektikasi bo'lganligi uchun ijtimoiy-falsafiy masaladir. Davlatchilik g'oyalari esa huquqiy ongning muhim tarmoqlaridandir.

Davlatning kelib chiqishining turli xil nazariyalari mavjud bo'lib, ularning negizida madaniylik yotadi. Madaniy borliqning tarixiy tiplari – sivilizatsiyalar o'z fuqarolari va davlatiga ega mamlakatlarni keltirib chiqaradi. Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyatni institutlari esa sivilizatsiyalarga bog'liq holda amal qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islamov Z.M. Problemy vlasti: ee ponimanie, naznachenie, sotsialnaya sennost. – T.: Izd. TGYUI, 2003.
2. Royanov F.M. Problemy teorii gosudarstva i prava (yurisprudensii). – M.: «Pravo i gosudarstvo», 2003.
3. Islamov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: "Adolat", 2007.
4. Sokolov A.N. Pravovoe gosudarstvo: ot idei do ee materializatsii. – Kaliningrad: "Yantarnyy skaz", 2002.
5. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: TDYUI nashriyoti, 2000. 67-bet.
6. Aristotel. Politika // Sochineniya v chetirex tomakh. T.4. – M.: «Mysl», 1983.
7. Farobi Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: "Xalq merosi", 1993.
8. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: 1991.
9. Lokk Dj. Izbrannye filosofskie proizvedeniya v dvux tomakh. T.2. – M.: Izdatelstvo sotsialno-ekonomicheskoy literatury. 1960.
10. Kant I. Metafizika pravov. // Sobranie sochineniy v vosmi tomakh. T.8. – M.: «Loro», 1994.
11. Saidov A., Tadixanov U. Davlat va huquq asoslari. – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 1999.
12. Obshchaya teoriya prava i gosudarstva. – M.: "Yurist", 1994.
13. Teoriya gosudarstva i prava. – M.: "Yurist", 1997.
14. Islamov Z. Obchestvo. Gosudarstvo. Pravo. – T.: «Adolat», 2001.
15. Obshchaya teoriya gosudarstva i prava. Akademicheskiy kurs v 2-x tomakh. –tom Teoriya gosudarstva. – M.: Izdatelstvo «Zerkalo», 1998.
16. Chetvernin V.A. Funksiya gosudarstva // Problemy obshchey teorii i gosudarstva. – M.: Norma, 1999.
17. Pugachyov V.P. Solovyov A.I. Siyosatshunoslikka kirish. – T.: "Yangi asr avlod", 2004.
18. Saidov A. Verxovenstvo zakona // gazeta "Vecherniy Tashkent", 1993 g., 12 maya.